

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**B.Shermuhammadov, O.Raxmatov**

Raqamli ta'lif muhitida bo'lajak o'qituvchilarni informatsion madaniyatini rivojlantirishning pedagogik tizimi..... 8

**B.Shermuhammadov, D.Namozova**

Bo'lajak musiqa o'qituvchisining kreativ kompetentligini takomillashtirish modeli..... 13

**B.Shermuhammadov, B.Baratov**

Bo'lajak o'qituvchilarni uzliksiz ma'naviy tarbiya jarayonida ma'naviy-madaniy fazilatlarini rivojlantirish shart-sharoitlari ..... 18

**D.Yuldasheva, R.Bekmagambetova, Sh.Matkarmoza**

Bolalar poetik matnlarini pedagogik dizayn vositasida o'rgatish..... 22

**B.Qurbanova**

Hamkorlik pedagogikasi asosida oliy ta'lifda ta'lif jarayonini samarali tashkil etish ..... 25

**I.Siddiqov**

Bo'lajak tarix o'qituvchilarida informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari ..... 29

**A.Xo'jayev**

Kadrlar tayyorlash sifatini monitoring qilishda boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish ..... 33

**X.Qodirov**

Professional-pedagogik madaniyatning xossasi sifatidagi innovatsionlikning shaxsiyat darajasida namoyon bo'lish tasniflari ..... 38

**B.Baydjanov**

Bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda axborot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishga tayyorlash samaradorligi ..... 42

**A.Turaxanov**

Chaqiriqqacha harbiy ta'lif yo'nalishi talaba (kursant)larida jismoniy-taktik ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari ..... 49

**R.Madalyev**

Talaba yoshlarning harbiy vatanparvarlik tarbiyasida artpedagogik vositalarning ahamiyati..... 52

**X.Yulbarsova**

Bo'lajak sotsiologlarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida ..... 56

**A.Soyibnazarov**

Ta'lifda yangicha yondashuv tahlili: smart ta'lif..... 62

**S.Kamchiyev**

Ertalabki gimnastikani kichik va o'rta guruhlarda o'tkazish usullari va mohiyati..... 67

**N.Mamatqulova**

Ta'lifda kredit-modul tizimini qo'llashning ayrim jihatlari ..... 71

**S.Sulaymanova**

Tasviriy san'at fanlarida perspektivaning muhim ahamiyati va uning qo'llanilish xususiyatlari..... 75

**M.Aripjanova**

Professional ta'lif o'quvchilarining kasbiy kompetentsiyalariga talablar tahlili ..... 80

**D.Yo'idosheva**

Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirishning zamonaviy pedagogik usullari ..... 83

**N.Dusimbetova**

Bo'lajak jurnalislarda axborot xavfsizligi kompetentligini rivojlantirishning amaliyotdagi holati..... 88

**T.Turgunbayev**

Harbiy ta'lifda milliy identiklik tarbiyasi asosida talabalarda (kursantlarda) vatanparvarlikni rivojlantirishning pedagogik shakli, metodi va vositalari ..... 92

**N.Yuldasheva**

Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish borasidagi metodik yondashuvlar ..... 95

**PROFESSIONAL-PEDAGOGIK MADANIYATNING XOSSASI SIFATIDAGI  
INNOVATSIONLIKNING SHAXSIYAT DARAJASIDA NAMOYON BO'LISH TASNIFLARI**

**ХАРАКТЕРИСТИКА ПРОЯВЛЕНИЯ ИННОВАЦИОННОСТИ НА УРОВНЕ ЛИЧНОСТИ  
КАК СЛЕДСТВИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ**

**THE CLASSIFICATION OF INNOVATIVENESS ON THE LEVEL OF AN INDIVIDUAL AS  
PROPERTY OF THE PROFESSIONAL PEDAGOGICAL CULTURE**

Qodirov Xasanboy Oribjonovich<sup>1</sup>

**<sup>1</sup>Qodirov Xasanboy Oribjonovich**

– Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg'ona filiali, Telekomunikasiya texnologiyalar va kasb ta'lif fakulteti, "Axborot-ta'lif texnologiyalari" kafedrasi dotsenti, PhD.

**Annotatsiya**

*Maqolada zamonaviy madaniyatli shaxsnинг eng muhim jihatlari ochib berilgan. Pedagogning innovatsion faoliyati pedagogik madaniyat tarkibi sifatida talqin etilgan. Ijodiy tafakkurning yetakchi xossalariiga e'tibor qaratilgan. Shu bilan birgalikda professional-pedagogik madaniyatning xossasi sifatidagi innovatsionlikning shaxsiyat darajasida namoyon bo'lishiha oid fikrlar misollar asosida tahlil qilib berilgan.*

**Аннотация**

*В статье раскрываются наиболее значительные стороны современной культурной личности. Инновационная личность трактуется в качестве свойства культуры. Обращается внимание на ведущие черты творческого мышления, при этом на примерах анализируются представления о проявлении инновационности на уровне личности как признаке профессионально-педагогической культуры.*

**Abstract**

*In the article the important aspects of modern and cultural person are revealed. Pedagogical personality of innovative person is commented as a uniqueness of culture. Attention is paid to the leading features of creative thinking. At the same time, ideas about the manifestation of innovation at the level of personality as a feature of professional-pedagogical culture are analyzed on the basis of examples.*

**Kalit so'zlar:** pedagogik madaniyat, pedagogic texnologiya, innovatsion hayot tarzi, insonparvarlik pedagogikasi.

**Ключевые слова:** педагогическая культура, педагогическая технология, инновационный образ жизни, гуманистическая педагогика.

**Key words:** pedagogical culture, pedagogical technology, innovative lifestyle, humanitarian pedagogy.

**KIRISH**

Shaxsnинг kamol topish imkoniyatlariga nisbatan gumanistik jamiyatning bilimlar jamiyatini sifatida shakllanishi haqidagi tasavvurga asoslangan yondashuvlar e'tiborlidir. «Bunga erishish uchun hozirgi jamiyatni shunday o'zgartirish, qayta qurish kerakki, bilimlar, madaniy boyliklar uning ma'naviy, ijtimoiy-siyosiy va moddiy ishlab chiqarishlarida yaratilsin. Hozirgi jamiyatni bilimlarni yaratish va ularning amal qilishiga qayta yo'naltirishning zaruriyati, avvalambor, shu bilan belgilanadiki, yaxlit shaxsni shakllantirish va kamol toptirish, insonning mohiyati individum hayotda o'zlashtirgan bilimlar majmui bilan belgilanishiga erishish yangi jamiyatning oliy maqsadi hisoblanadi». Shaxs innovatsion tipining o'ziga xos xususiyatlariga ham hozirgi jamiyat o'zgarishining ayni shu g'oyasidan kelib chiqib yondashiladi.

Shu nuqtayi nazardan zamonaviy shaxsning A.Inkeles tomonidan taklif qilingan tahliliy modeli diqqatga sazovordir. Ushbu shaxsning eng muhim jihatlari quyidagilardir:

1. Eksperimentlar, innovatsiyalar va o'zgarishlarga ochiqlik.
2. Fikrlar rang-barangligiga tayyorlik, o'z dunyoqarashining o'zgarishidan cho'chimasdan turli xil nuqtayi nazarlar mavjudligini tan olish.
3. O'tmishga qarab emas, balki hozirgi zamон va kelajakka qarab mo'ljal olish.
4. Hayot to'siqlarini yengish qobiliyati.
5. Ijtimoiy hayotda ham, shaxsiy hayotda ham maqsadlarga erishish uchun bo'lg'usi harakatlarni rejalashtirish.

## PEDAGOGIKA

6. Ijtimoiy hayotni tartibga solish va prognoz qilish imkoniyatiga ishonch ko'zi bilan qarash.
7. Ishga qo'shgan hissasi va kasbiy mahoratiga qarab haq to'lanishiga bo'lgan ishonchga asoslangan odillik hissi.
8. Ma'lumot va ta'limga yuksak darajaga qo'yish.
9. Boshqalarning sha'ni va qadr-qimmatini ularning maqomi va mavqeyidan qat'iy nazar hurmat qilish.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Zamonaviy shaxsning yuqorida zikr etilgan xususiyatlari u yoki bu talqinda turli tadqiqotchilarida asarlarida takrorlanadi. Ularda zamonaviy shaxsning umumiylar xususiyati ijtimoiy hayotga moslashish yo'li bilan o'zini o'zi o'zgartirish qobiliyati emas, balki ijtimoiy hayotni o'zgartirishga ham, o'zini o'zi o'zgartirishga ham qaratilgan hayot mazmunini yaratish qobiliyati ekanligi qayd etiladi. Ijodga xos bo'lgan bu xususiyat shaxsiy jihatlar majmuuni ham, shaxs innovatsion tipining atributiv belgisi sanalgan ijodiy tafakkurning umumiylar xossalarini ham belgilaydi. Quyidagilar ijodiy tafakkurning yetakchi xossalari hisoblanadi:

- ayni bir sharoitlarda muammo yechimining turli xil variantlarini topish qobiliyati;
- ziddiyatli vaziyatning ziddiyatdan xoli yechimini topish qobiliyati.

Bu qobiliyatlarning tegishli shaxsiy xususiyatlar bilan uyg'unligi innovatsionlikning zaruriy elementi sanalgan integrativ xossa – ijodkorlikning mohiyatini belgilaydi.

Innovatsion shaxsning ayrim tipologik jihatlariga fransuz olimi M.Krozye asarlarida duch kelish mumkin. Ushbu muallif odamlarning tashabbus ko'rsatish qobiliyati hozirgi sharoitlarda rivojlanishning moddiy resurslarni boshqarishga qaraganda muhimroq omiliga aylanishini, ayni shu sababli raqobat kurashi moddiy resurslarni qo'lga kiritish muammosi atrofida emas, balki tez yangilanish, innovatsiyalarni yaratish va amalga joriy etish qobiliyati atrofida avj olishini ta'kidlaydi. Xodimning yetakchi shaxsiy fazilatları orasida kasbiy mahorat va bilimdonlik bilan bir qatorda tashabbuskorlik, innovatsion o'zgarishlarga tayyorlik ham shu darajada ulkan ahamiyat kasb etadi. Bu fazilatlarning ishga solinishi esa ta'limga olishga tayyorlik va qobiliyatga bevosita bog'liq bo'ladi. Shu tariqa uzlusiz ta'limga rivojlanishini harakatlantiruvchi kuchlar o'zgaradi.

Ta'limga faoliyatida innovatsiya subyektini shaxsiyat darajasida tiplarga ajratish borasida mavjud urinislarda aslida innovatsion faoliyatga emas, balki innovatsiyaga bo'lgan munosabat o'z aksini topadi. Boshqacha qilib aytganda, pedagog xodimlarning umumiy to'plamida innovatsiyaga qarab mo'jal oluvchilarining guruhlari ajratiladi. Shu nuqtayi nazardan innovatsiyalarni amalga oshiruvchi subyektlarning quyidagi «ideal tiplari» ajratilgan Rojers tasnifi, bizningcha, diqqatga sazovordir:

- novatorlar – yangilikka doimo ochiq; doim o'z amaliyotida innovatsiyalarni o'zlashtirishga harakat qiladilar; innovatorlarning kommunikativ muhitida yaxshi mo'jal oladilar; tavakkal qilishdan cho'chimaydilar; qaror qabul qilishni natijaga erishish jarayonini loyihalash asosida amalga oshiradilar;

- boshlovchi amalga oshiruvchilar – so'zning o'z ma'nosida novatorlarga ergashadilar; ularning yutuqlariga qarab mo'jal oladilar, lekin tavakkal qilishga botinmaydilar; har bir innovatsiyani amalga oshirishga dadil qo'l uradilar; o'z ishlarini innovatsiyalarni joriy etish jarayonida olingan natijalarga baho berish asosida tashkil etadilar;

- jarayonga birinchilardan bo'lib qo'shilgan ko'pchilik – novatorlar va boshlovchi amalga oshiruvchilar ishida o'zini oqlagan innovatsiyalarni o'zlashtiradilar; o'zini oqlagan innovatsiyalar bilan tanishish va o'z qarori o'rtaсидagi masofa ancha uzoq; yo'l tanlash erkinligi darajasining kattaligi bilan ajralib turadilar; harakatlarning turli variantlariga qarab mo'jal oladilar;

- jarayonga kechroq qo'shilgan ko'pchilik – har qanday innovatsiyaga ishonch sizlik bilan qaraydilar; o'zlashtirishga ta'limga muhitining kuchli tazyiqi ostida qo'l uradilar; yo'l tanlashda erkin emaslar, chunki faqat professional muhitda tan olingan innovatsiyalarga qarab mo'jal oladilar;

- ikkilanuvchilar – an'anaviy qadriyatlar va ajdodlar tajribasiga qarab mo'jal olish; ushbu guruhning professional jihatdan o'z qobig'iga o'ralishiga imkoniyat yaratuvchi cheklangan kommunikatsion maydon; novatorlar hurmat qilinmaydi va tan olinmaydi; innovatsiya keng tarqalib, ijtimoiy me'yorga aylanganidan keyingina o'zlashtiriladi – 16%.

Rojers taklif etgan tipologiyani modernizatsiya qilgan K.Angelovskiy ayni shu holatga e'tiborni qaratishga majbur bo'ladi. Tasnifning mazmunga oid asosini saqlagan holda, u tasnifni tashkil etish shaklini o'zgartiradi. Bunda asosiy belgi sifatida, avvalgi holdagi kabi, mohiyat –

pedagog sifati sanalgan innovatsionlik emas, balki innovatsiyani o'zlashtirishga qo'shilish vaqtı amal qiladi. Natijada quyidagi taqsimlanish olinadi:

- yangilikni u yangi bo'lgani uchunoq yaxshi deb hisoblaydigan novatorlar;
- innovatsiyalarni ular pedagogik voqelikda paydo bo'lgani zahoti amalga joriy etish kerak, deb hisoblaydigan ilg'orlar;
- oldingi saflarda bo'lismiga harakat qilmaydigan, lekin hammadan orqada qolishni ham istamaydigan va innovatsiyani u hamkasblarining aksariyati tomonidan qabul qilinganidan keyingina o'zlashtirishga kirishadigan mo'tadillar – 17,78%;
- yangilikka ishonch ko'zi bilan qarashdan ko'ra ko'proq unga shubha bilan qaraydigan, uni ko'pchilikning jamoatchilik fikri yangilikni ijobiy baholaganidan keyingina tan oladigan oxiridan bitta oldingilar – 8,03%;
- «ishimizning to'g'riliqiga ishonch hosil qilmagunimizcha hammadan orqada bo'lganimiz ma'qul» degan prinsipga binoan ish ko'rvuchi oxirgilar.

Yuqorida keltirilgan ikki tasnidga tizim sifatidagi va maxsus tashkil etilgan faoliyat sifatidagi innovatsianing muhim belgilari uning mohiyatini belgilovchi asoslar sifatida saqlab qolinmagan. Shaxs o'z taqdirini o'zi belgilashi natijasida tanlaydigan turmush sifatidagi innovatsiya bilan yangilikning vaziyat taqozosiga ko'ra joriy etilishi o'rtasidagi farq yo'qolgan. Bu yangilik yaratuvchi buniyodkor bilan birovning mahsulotidan nusxa ko'chiruvchi hunarmand o'rtasidagi farq emas. Zero nusxakashlik ham ijodning o'ziga xos shakli hisoblanadi. Bu yerda yo'l tanlash erkinligi darajasidagi chuqurroq ziddiyat namoyon bo'ladi. Ta'bir joiz bo'lsa, «zo'raki innovator» g'ayritabiyyi tipi paydo bo'ladi. Ammo bu turdag'i tipologiyalar ta'lif makonida tadqiqot va boshqaruv vositalari sifatida ancha keng tarqalgan.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ayrim mualliflar «innovatsianing tavsifi innovatorlarga ishlanmalarning mualliflarinigina emas, balki g'oyani yangi sharoitlarga ijodiy moslashtirishga muvaffaq bo'lgan o'qituvchilarni ham kiritish imkoniyatini beradi», degan ancha to'g'ri konseptual asosga tayanib, innovatorlarning ziddiyatli tipologiyasini tuzadilar. Motivatsiya belgisini asos sifatida belgilab, ular quyidagi tipologik guruhlarni taklif qiladilar:

- sodda innovatorlar – «professional belgiga ko'ra o'z g'oyalarini ro'yobga chiqarish obyektiga mansub bo'lmagan» innovatorlar, ularga «hatto adabiyotni o'qitish metodikasini taklif qilayotgan fizika o'qituvchisi»ni ham kiritish mumkin;
- tadqiqotchilar – oliy o'quv yurtlarining professor-o'qituvchilar tarkibi va tadqiqot obyekti ta'lif tizimi sanalgan olimlar;
- innovatorlikni o'z burchi deb biladigan shaxslar – innovatsion faoliyat kasbiy vazifasi sanalgan mansabdar shaxslar (masalan, oliy ta'lif direktorining ilmiy ishlar bo'yicha muovini, psixolog va sh.k.);
- ruhan innovatorlar – o'z qadriyatlar tizimi, mustaqilligi va faolligi bilan ajralib turadigan, yangilikni izlashga ichki ehtiyoj, ruhiy holat sifatida qaraydigan shaxslar;
- zo'raki innovatorlar – innovatsion jarayonga ma'muriyat ko'rsatmasiga muvofiq qo'shilgan shaxslar.

Bizning nazarimizda, taklif qilinayotgan tipologiyaning sifati shu darajada aniq va ravshanki, unga izohning hojati yo'q. Faqat shuni qayd etish lozimki, ilgari surilgan tasniflash prinsipi bu yerda qat'iy rioya qilinmagan, chunki faoliyatning chinakam innovatsion mohiyatini aks ettiruvchi birdan-bir tip – «ruhan innovator» «sodda innovatorlar» orasida ham, «tadqiqotchilar» orasida ham, hatto «innovatorlikni o'z burchi deb biladigan shaxslar» orasida ham uchrashi mumkin.

Shu bilan birga, ushbu tadqiqotda stimul va motiv tushunchalarini ajratish asosida aktual motivatsiya belgilarining qiziqarli talqini taklif qilinadi. Ularning orasida quyidagilar bor: birinchi – oliy ta'lif ta'limga munosabat; ikkinchi – yuzaga kelgan qiyinchiliklarni bartaraf etish niyati; uchinchi – innovatsion faoliyatning jalb qiluvchanligi. Ularni izchil qo'llash ta'lif jarayonlari shakllanayotgan sharoitlardagi umumiyligining «ijtimoiy-pedagogik fon»ni aniqlashga ham, innovatsion faoliyat belgisiga ko'ra pedagogik xodimlarning yanada aniqroq tipologiyasini topishga ham ko'maklashadi.

Hozirgi ta'lif amaliyotining holatini aks ettiruvchi ma'lumotlar tahlili natijasida chiqarish mumkin bo'lgan xulosa u yoki bu fikrni ifodalovchi ayrim guruhlarning foiz nisbatini taqqoslashdan iborat emas. Gap boshqa narsada: pedagogik xodimlar majmuining innovatsiyaga bo'lgan rang-barang munosabatlarini ikkilamchi yoki bilvosita belgilari (aytaylik, ta'lif tizimining holatiga baho

## PEDAGOGIKA

berish) asosida emas, balki professional-pedagogik madaniyatning sifati sanalgan innovatsionlikning o'zlashtirilish darajasini hisobga olgan holda tiplarga ajratish zarurligida.

### XULOSA

Ta'lim sohasidagi innovatsion jamoalar va innovatorlar ish amaliyotining nazariy tahlili, shuningdek, ijtimoiy-pedagogik vogelikning mazkur hodisasiga bag'ishlangan tadqiqotlar maydonida vujudga kelgan yondashuvlarni o'rganish shaxsiyat darajasida professional-pedagogik madaniyatning sifati sanalgan innovatsionlik tipologiyasining quyidagi mezon ko'rsatkichlarini ajratish zarur, degan xulosaga kelish imkoniyatini beradi:

- birinchidan, innovatsiya shaxsiy ahamiyatga molik qadriyat sifatida qabul qilinganmi;
- ikkinchidan, innovatsiyaga ta'lim tizimini rivojlantirishning zaruriy ijtimoiy mexanizmi sifatida yondashish ma'qullanadimi;
- uchinchidan, innovatsiya munosabatlarning yaxlit tizimi va o'ziga xos usulda tashkil etilgan faoliyat sifatida tushuniladimi;
- to'rtinchidan, bu munosabat o'z kasbiy faoliyatini tashkil etishga nisbatan tatbiq qilinganmi;
- beshinchidan, o'z faoliyatida uni innovatsion tashkil etishning xususiyati qay darajada o'zlashtirilgan.

Professional-pedagogik madaniyatning xossasi sifatidagi innovatsionlikning shaxsiyat darajasida namoyon bo'lishining asosiy tiplariga kelsak, umuman olganda, yuqorida keltirilgan taqsimlashning to'g'riligi boshqa tadqiqot ma'lumotlari bilan korrelyatsiya darajasining yuqoriligi bilan tasdiqlanadi. Shunday qilib, tadqiqot natijalari tipologik guruhlarning tarkibiy tuzilishi bevosita pedagogik faoliyat muhitining innovatsionlik darjasini bilan belgilanishini ko'rsatadi. Bu hol innovatsiya kollektiv subyektining innovatsion o'zaro aloqalar maydonidagi o'rni va imkoniyatlarini atroficha tahlil qilishga majbur etadi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Волков Ю.Г. Homo Humanus. Личность и гуманизм. – Челябинск, 1995. (Volkov Yu.G. Homohumanus. Personality and humanism. - Chelyabinsk, 1995.)
2. Карпова Ю.А. Инновации, интеллект, образование. – М., 1998. (Karpova Yu.A. Innovation, intellect, education. - M., 1998.)
3. Crozier M. L'entreprise a L'ecouente. Apprendre le management postindustriale. – Р., 1991.
4. Ангеловски К. Учителя и инновации. – М.: Наука, 1991.( Angelovsky K. Teachers and innovations. – M.: Nauka, 1991.)
5. Учитель. Школа. Общество. Социологический очерк 90-х гг. / Под ред. Смирновой Е.А. – СПб., 1995 (Teacher. School. Society. Sociological essay of the 90s. / Ed. Smirnova E.A. - St. Petersburg, 1995)
6. Oribjonovich, K. H. (2022). PEDAGOGICAL SKILL IN THE ACTIVITY OF A TEACHER IS A PRODUCT OF INDIVIDUAL CHARACTERISTICS. *International Journal of Pedagogics*, 2(12), 18-22.
7. Педагогика. // М.Х.Тохтакоджаеванинг умумий таҳрири остида. – Т.: Иқтисод-Молия, 2008.( Pedagogy. // Under the general editorship of M.Kh. Tokhtakhodzhaeva. - T.: Economy-Finance, 2008.)
8. Роджерс К. К науке о личности// История зарубежной психологии. – Тексты. – М.: Изд-во МГУ, 1996 (Rogers K. Toward the Science of Personality// History of Foreign Psychology. - Texts. - M .. Publishing House of Moscow State University, 1996)
9. Мелик-Пашаев А.А. Гуманизация образования: проблемы и возможности // Вопросы психологии. – 1995 (Melik-Pashaev A.A. Humanization of Education: Problems and Opportunities // Questions of Psychology. – 1995)